



ILG'OR PEDAGOG

ILMIY JURNALI

INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



2025

Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

2- JILD, 3 - SON
2025



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

TILSHUNOSLIKDA KOMPONENT TAHLIL**Qodirova Nargiza Abdusattor qizi**

Farg'ona davlat universiteti lingvistika:
o'zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
nargizaqodirova1993@gmail.com
+998905823940

Annotatsiya. Mazkur maqolada komponent tahlil qanday bo'lishi va bu orqali umumiy tahlil haqida bilib olish yoki tushunish uchun tasavvur paydo bo'ladi. Fonetik, morfologik va sintaktik tahlillar tilning shakl va mazmun jihatdan to'la qamrab olinishiga, til birliklarining funksiyasini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu tahlillar mukammal til tavsifini berish, ta'lim, tarjima, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarda qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin. Shuningdek, komponent tahlil ham ana shu tahlillarga asoslanadi. Komponent tahlil tushunchasi haqida o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar ot leksemalari bo'yicha oz bo'lganligi mavzuni o'rganish qamrovini kengaytiradi. Maqolada tahlil uchun zarur bo'limlar, qonun-qoidalar jamlangan.

Kalit so'zlar: tahlil, morfologik, assotsativ, grammatik, sifatli, komponent tahlillar.

Abstract. This article provides an idea of what component analysis is like within the framework of different systematic languages, and through this, an idea is created to learn or understand general analysis. Phonetic, morphological and syntactic analyses contribute to the comprehensive coverage of the form and content of the language, to the correct understanding of the functions of language units. In scientific research, these analyses can serve as a complete description of the language, and can be used in education, translation, literary studies and other fields. Component analysis is also based on these analyses. The fact that there are few studies in Uzbek linguistics on the concept of component analysis in the field of noun lexemes expands the scope of study of the topic. The article summarizes the necessary sections, laws and rules for analysis.

Keywords: analysis, morphological, associative, grammatical, qualitative, component, analyses.

Аннотация. Данная статья дает представление о том, что представляет собой компонентный анализ в рамках разных системных языков, и благодаря этому дает представление о том, что такое общий анализ. Фонетический, морфологический и синтаксический анализы способствуют всестороннему изучению формы и содержания языка, правильному пониманию функций языковых единиц. В научных исследованиях эти анализы могут служить целостным описанием языка и использоваться в образовании, переводе, литературоведении и других областях. На этих анализах также базируется компонентный анализ. Тот факт, что в узбекском языкознании мало исследований о понятии компонентного анализа по именной лексеме, расширяет сферу изучения темы, необходимые для анализа.

Ключевые слова: анализ, морфологический, ассоциативный, грамматический, качественный, компонентный анализы.

Kirish. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida tilni tipologik nazardan o'rganish, bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan lisoniy birliklar mohiyatini ochib berish, ularni struktur-semantik tomonidan tahlil etish, muhim o'zlashma so'zlarning talqinini yoritish, ularning lisoniy, ijtimoiy madaniy xususiyatlari jihatidan izlanishlar olib borish eng muhim masalalardan biriga aylandi.

Jahon tilshunosligida muayyan til birligining boshqa bir tilga o'zlashish masalasi til ilmining leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturologiya, etnoligvistika, tarjima nazariyasi, chog'ishtirma tilshunoslik singari sohalari bilan bog'liq jihatda o'rganilgan. Mazkur hodisaning leksika va semantika sathida atroflicha yoritilishi u yoki bu tilning leksik imkoniyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning struktur-semantik tuzilishini, tushunchalarni ifodalash usullarini, tilda variantlilik, polisemiya hodisalarining rivojlanishi hamda ularning tilda qo'llanish mexanizimini aniqlashga imkon beradi.

Materiallar va usullar. Tildagi mavjud har qanday funksional uslub tomonidan ifoda etilayotgan xabar kabi badiiy asar matni ham nutq aktining birin-ketin keluvchi tanlangan majmuasi deb qarash mumkin. Bu esa o'z navbatida bir qator obyektiv va subyektiv, shaxsga nisbatan aloqador bo'lgan faktorlar bilan izohlanadi. Tilga olib o'tilgan faktorlarning ta'siri ko'proq ikki xil nutqda namoyon bo'ladi. Bu ikki xil nutqning birinchisi, situatsiya bilan, norasmiyligi bilan xarakterlanadi.

Tahlil so'zi mavjud lug'atlarda turlicha izohlanadi. Jumladan, falsafaga oid ensiklopedik lug'atlaridan "Tahlil (yunon tilidan – ajralish, parchalanish) predmetni (hodisa, jarayon), predmetning (predmetlar) xususiyatlarini yoki predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni qismlarga (belgilar, xususiyatlar, munosabatlar) tarkibiy qismlarga fikran yoki amaliy ravishda ajratish tartibi", narsa-hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratishga asosiy e'tibor qaratilsa [1] tarjima lug'atlarida:

a) tahlil (ilmiy tekshirish (tadqiqot) usuli; obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish vositasi);

b) analiz, tahlil; tahlil qilish; matematik tahlil (oliy matematikaning bir bo'limi)" [2] ilmiy tadqiqot usuli, biror jarayonni tekshirish, moddalarning tarkibini aniqlash ma'nolariga urg'u beriladi.

Morfologik tahlil. To'g'ridan-to'g'ri komponentlar bo'yicha tahlil qilishdir.

Assotsiativ tahlil. So'zni tashkil etuvchi allofonlar va allomorflarni ma'lum bir tadqiqot darajasi uchun o'rnatilgan strukturaviy qatorlar bilan (ya'ni, tegishli fonema va morfemalar bilan) o'zaro bog'lash.

Grammatik tahlilda so'zlar orasidagi grammatik bog'lanishlarni aniqlash (mos ravishda leksiklashgan iboralar). Lingvistik tahlil asta-sekin ochiladigan juft qarama-qarshiliklar qatoriga asoslanadi.

Kategoriya tahlili fe'dagi zamonning qarama-qarshiliklar tizimiga keltirilishi mumkin;

a) nutq lahjasini o'z ichiga oluvchi ish-harakatning belgilanishi nutq momentini o'z ichiga olmagan ish-harakatga qarama-qarshi qo'yiladi;

b) nutq momentini o'z ichiga olmagan harakatga bo'linadi va nutq momentidan oldin sodir bo'lgan hamda nutq paytidan keyin sodir bo'ladigan harakat va hokazo.

Sifatli tahlil. Tilni tavsiflash usuli – analistik tizim, mavjudlik berilgan hodisa chastotasining xususiyatlariga havola qilinmagan holda uning yo'qligidir.

Natijalar. Komponent tahlili. Cheklovchi komponentlarni aniqlash komponentlar bir xil darajadagi turli til birliklarini bir-biridan ajrata oladigan differensial xususiyatlar sifatida til birligidir. Tilning minimal mazmunli elementlarini aniqlash va ularning morfemalarini aniqlashga qaratilgan lingvistik tadqiqot usullaridan biri.

Grammatik munosabatlarni ifodalashning tasviriy usuli bilan tavsiflangan analitik tillarning morfologik tuzilishi; qarama-qarshi sintez (ikki qiymatda)dan o'tkazish va tahlil qilish uchun sintez.[3]

Lingvistik tahlil o'zbek tilshunosligining nazariy bo'limlarini sistemali o'rganishning maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til faktlari haqidagi nazariy ma'lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari aniq misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi. Tahlil etuvchi har bir til faktining nazariy asoslarini puxta egallashga intiladi. Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lingvistik tahlilda olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko'ra aniq bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir. Bu hodisa til o'rganuvchilarning til hodisalarini tez va to'g'ri ajrata olish malakalarini egallashlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o'ynaydi.[4]

Lingvistik nazariya, til sistemasi va tarixiy faktlarga asoslangan filologik tahlilda esa adabiy metod, janr, badiiy-estetik prinsiplar, muallif shaxsi va uning nutqiy maneriyasi va boshqa matn til ifoda vositalarining tarkibi hamda ko'rinishini belgilovchi omillardir. Lingvistik tahlil - til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tadqiq etish, til birliklarining aniq holatini belgilashdir. Masalan, hosildorlikni so'zida ikkita til hodisasi mavjud bo'lib, u xuddi shu hodisalar nuqtai nazaridan tahlil etilishi mumkin: a) so'z yasalishi hodisasi; b) shakl yasalish hodisasi (morfologik hodisa). Bu so'zda ikkita yasama so'z mavjud bo'lib, so'z yasalishi tahlilida har bir yasama so'zning tarkibi va bu tarkibiy qismlarning mohiyati vazifasi, ma'nosi va shakli belgilanadi. Bunda hosildor yasama so'z ekani, u so'z yasalish asosi hosil va so'z yasovchi -dor qo'shimchasidan iborat tarkibiy qiymatga egaligi, so'z yasalish asosi (hosil) ot turkumiga oidligi, -dor qo'shimchasining qaysi turkumga oid so'zdan qaysi turkumga mansub so'z va qanday ma'noli so'z yasashi hamda uning boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Hosildorlik yasama so'zining tahlili ham xuddi shu tarzda olib boriladi, ya'ni u yasama so'z ekani, unda hosildor so'z yasalish asosi, -lik so'z yasovchi qo'shimcha ekani, shuningdek, bu qo'shimchaning ma'nosi va boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Morfologik tahlilda hosildorlik so'zining ot ekanligi, -ni qo'shimchasi shu so'zning tushum kelishik shaklini yasalishi, uning ma'nosi va shaklini qayd etadi.[5]

Nutqning fonetik qismlarini o'rganishiga qarab fonetika ikki turli bo'ladi: segmental fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil

bo'lishi va uning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment-nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar: bo'g'in, so'z va frazalarni o'rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi. Asosiy fonetik birliklar: fraza, takt, bo'g'in, nutq tovushlari. Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so'z birikmasi, so'z va morfemalarga. Garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham sifat jihatidan bir-biriga mos kelmaydi.[6]

Komponent tahlil differensial tahlilning leksik tizimga tadbiiq etilishi natijasida yuzaga keladigan tahlil usulidir. Lug'aviy birliklar, til tizimida ma'lum tartibdagi guruhlarini tashkil qiladilar va ma'nolari jihatidan o'zaro paradigmatic munosabatlarda bo'ladilar. Bunday paradigmatic dasturlarni "mavzuviy guruhlar" yoki "leksik semantik" guruhlar deb ataydilar.

Masalan quyidagi mavzuviy guruhlarini ajratish mumkin:

- 1.Uy jihozlari nomlari: divan, sandiq, tahmon va hokazo.
- 2.Metereologik hodisalar: bo'ron, qor, yomg'ir, izg'irin.
- 3.Qon-qarindoshlik atamallari: ota , bola, ona ,qiz, aka ,tog'a, amaki.
- 4.His-hayajonni ifodalovchi so'zlar: xursandchilik, xafalik, zavq, shodlik.

Inson intellektual faoliyatini ifodalovch fe'llar: o'ylamoq, fikrlamoq, faraz qilmoq, bilmoq va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, so'zlar turli leksik-semantik guruhlariga ajratilayotganda umumiy semantik xususiyatlariga asoslanadi, ya'ni semantik umumiylikka ega bo'ladi. Biroq, ta'kidlash joizki, ma'lum leksik semantik tarkibiga kiruvchi so'zlar o'z o'rnida o'zaro farqlanadi va qarama-qarshilikka ega bo'ladi. Bunda mavjud farqlar va oppozitsiyalar yordamida so'zlarni o'zaro chog'ishtirish orqali ularning ma'no komponentlari aniqlanadi. Har bir so'zning semantik maydoni, ma'no doirasi yoritiladi.[7]

Mazkur maqolada lozimanda so'zining bosqichma-bosqich komponent tahlilining borishi va natijalari tasvirlangan, uning maqsadi so'z tomonidan verbalizatsiya qilingan konsept mazmuni va dinamikasini aniqlashdir. Birinchi bosqichda lozimanda so'zining semantik tuzilmasi aniqlanadi; ikkinchi bosqichda uning tegishli LSGdagi semantik bog'liqliklari va munosabatlari belgilanadi; uchinchi, yakuniy bosqichda lozimanda konseptning kategorial belgilari aniqlanadi. Konseptning mazmunini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan komponentli tahlil faqat lug'at ta'rifigagina emas, balki tildagi leksik tizimda kategorial turdagi birlashmalarni hosil qiladigan

tahlil qilinayotgan birliklarning paradigmatic bog'liqliklariga ham tayanishi kerak:

- 1) grammatik bir xillik (LSGga kiruvchi leksik birliklar bitta grammatik kategoriyaga gap qismiga tegishlidir);
- 2) semantik bir xillik (invariant sema mavjudligi);
- 3) paradigmatic munosabatlar turining bir xilligi (ma'lum shartlarda o'zaro almashtirish qobiliyati).

Tahlil qilish. LSGning bu talqinida til kategoriyalarining shakllanishining iyerarxik prinsipi aks etgan. N.N. Boldirevning ishlarida shakllantirilgan boshqa, prototipik yondashuv shundan iborat: til kategoriyalarining shakllanishining yetakchi prinsipi nisbiy o'xshashlik prinsipi bo'lib, unda leksik birliklar prototipik xususiyatlarga ega bo'lish darajasiga ko'ra farqlanib, nisbiy o'xshashlik asosida bitta guruhning a'zolari sifatida birlashtiriladi. Aynan shu yondashuv lozimanda so'zining ma'no dinamikasini aniqlash metodikasining asosiga qo'yilgan.[8]

Lozimanda fors-tojik tilida lozimona so'zi o'zbek tiliga o'zlashgan, N.N. Boldirevning metodga asosan komponentlarni birlashtirib tahlil qilib ko'ramiz:

1. Semantik yadro (asos va qo'shimcha morfemalar):
 - a) lozim – zarur, kerak, darkor, majbur;
 - b) -anda + -da qo'shimchasi (vaqt, joy, holatni bildiruvchi qo'shimcha).
2. Komponentlar: lozim + anda (ona)
 - a) lozim – zarurlik, majburlik;
 - b) -anda – joy, vaqt, holat.[9]

Komponentlarni birlashtirish.

Lozimanda so'zi lozim va -anda (-ona) komponentlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib ayollar yig'ilib marosim qiladigan joy ma'nosini bildiradi.

Komponent tahlilning dastlabki bosqichi tilda lug'at boyligidan ma'lum leksik-semantik guruhning ajratilishi hisoblanadi. O'z navbatida mazkur guruh ham o'z bosqichlariga ega, ya'ni o'z o'rnida u ham ichki guruhlarga bo'linishi mumkin. Shuni takidlash mumkinki, ikki turli xil leksik semantik guruh o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Masalan, tirik mavjudotlarni bildiruvchi leksik birliklar jonsiz narsalarni anglatuvchi birliklar bilan qarama-qarshi qo'yiladi. O'z navbatida tirik jonzotlar guruhi ham o'zaro farqlanishi mumkin: qushlar nomlarini bildiruvchi leksik-semantik

guruh va baliqlar turlarini ifodalovchi leksik-semantik guruh. Bundan tashqari, insoniy his-tuyg'ularni bildiruvchi leksik birliklar o'z o'rnida ijobiy va salbiy insoniy his-tuyg'ularni ifodalovchi leksik semantik guruhga bo'linadi va o'zaro qarama-qarshi qo'yilib o'rganiladi. Shunday qilib, komponent tahlilning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

a) komponent tahlil asosan leksik sath birliklarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi;

b) so'zlar umumiy semantik xususiyatlari asosida ma'lum leksik semantik guruhga biriktiriladi va bunday so'zlar o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi;

d) ma'lum leksik semantik guruhdagi so'zlar ham (umumiy semantik belgisiga ega bo'lsa-da) o'z navbatida bir-biriga qarshi qo'yilib, semantik ma'no qirralari, nozikliklari aniqlanishi mumkin bo'ladi.

Ot leksemalarini komponent tahlil qilishda so'zlarni ma'nosi va semantikasini ko'rib chiqamiz.

Xulosa. Til taraqqiyotida leksemaning semantik tuzilishi ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. O'zgarish natijasida yangi ma'no paydo bo'ladi, aksinsa, mavjud ma'no vaqt o'tishi bilan yo'qoladi. Natijada ma'nolar o'rtasidagi nisbat o'zgaradi: bir qator so'zlarning bosh ma'nosi ko'chma ma'no tomondan siqib chiqariladi. O'zlashma so'zlarda esa butunlay yangi, hatto teskari ma'no yuzaga keladi. Ko'p ma'noli so'zlarning barcha ma'nolari kontekst bilan shartlanadi, lekin bu bunday shartlanish ular uchun bir xil darajada muhim ekanligini anglatmaydi. So'zlarni bosh va ikkinchi ko'chma ma'noga bo'lish, bu ma'nolarning semantik tizimdagi tengsiz mavqeini to'g'ri aks ettiradi. Bosh ma'no – asosiy ma'no bo'lib, u kontekst bilan belgilanmaydi. Ko'chgan ma'no asosiy ma'noning semantik strukturasi kontekst elementlarini ham qo'shadi. So'zning asosiy ma'nosi boshqa barcha ma'nolarga o'zining ma'lum bir semasi bilan asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Русча-ўзбекча луғат, икки томли, I том. – Тошкент: Ўзбек Сов. Энциклопедияси Бош редакцияси, 1983. б-31.

2.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, Изд. 2-ое, стереотип, – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. б-352.

3.Философский энциклопедический словарь/Гл. Редакция: Л.Ф.Ильичева, П.Н.Федосеев, С.М.Ковалев, В.Г.Панов – М.: Сов. Энциклопедия, 1983. б-23.

4. Жеребило Т.В. Термины и понятия: Методы исследования и анализа текста: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим, 2011. б-341.

5. Mengliyev. V. Hozirgi o'zbek tili.tafakkur bo'stoni – Toshkent, 2018. б-82.

6.Mirtojiyev. M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

7.Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. б-12.

8. Кудратов Т. Лингвистик таҳлил. – Тошкент: Уқитувчи, 1981. б-241.

9. Исомиддинов Ф., Дусматов Х., Жума Жалол. Ўзбек тилининг форс-тожикча ўзлашмалар луғати. – Фарғона, 2022. – 152 б.